



## **XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA TUMANI KENGASHINING QARORI**

2025-yil 16-sentabr

VII-12-98-11-163-K/25

Farg'ona tumani

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-son Farmonining Farg'ona tumanidagi ijrosi haqida**

Tumanda aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish, fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish yo‘nalishlari bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Farg'ona tumani hokimi X.Inomovning - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar va mazkur Farmonda belgilab berilgan vazifalar ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisoboti eshitilib, muhokama qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni ijrosini ta’minlash, bu borada deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan Farg'ona tumanida amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha tuman hokimi X.Inomovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.**
- 2. Tuman hokimligi, davlat organlarining barcha hududiy bo‘limmalari rahbarlari faoliyatlarida “O'zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli**

ko'rsatkichlariga erishish eng ustuvor vazifa etib belgilanganligi va bu borada har bir rahbar shaxsan mas'ul ekanliklari ko'rsatib o'tilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-son Farmoni ijro etilishi yuzasidan vazirlik va idoralar hududiy bo'linmalari rahbarlarining axborotini har chorakda eshitish va tanqidiy muhokama qilib borish tavsiya etilgan inobatga olinsin.

Bunda, 2025-yilda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining hududlar kesimida ijro etilishi yuzasidan mas'ullarni Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida hisobotlarini eshitib borish reja-jadvali (keying o'rirlarda - reja-jadval) tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (*Mo'minov*) tegishli tashkilotlar bilan birlgilikda joriy yilning IV-choragida tashkil etiladigan mehnat yarmarkalari reja-jadvalini ishlab chiqilib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali keng jamoatchilikka ma'lum qilsin.

5. Tuman hokimining tegishli o'rindbosarlariga mavjud ish o'rirlari bo'yicha aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan bo'sh ish o'rirlari bo'yicha mehnat yarmarkalarining tashkil etish, kasb-hunarga o'qitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini ko'rib borsin.

Bunda,

mehnat yarmarkalarini samarali tashkil etish, yarmarkalarga aholini ko'proq qismini qamrab olish orqali ularni ishga joylashtirish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rindosidan maqsadli va samarali foydalanish;

kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini ko'proq jalb qilish hamda mashg'ulotlarni o'z vaqtida va samarali o'tishini doimiy nazorat qilib borish;

mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbir ishlab chiqish vazifalari yuklansin.

6. Tuman hokimining o'rindbosari O.Abduraximov – joriy yil yakuni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining Farg'ona tumanidagi ijrosi yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga to'liq hisobot berishi ta'mnlansin.

7. Xalq deputatlari Farg'ona tumani Kengashining barcha deputatlariga:

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi – xalq strategiyasi" shiori ostida belgilangan islohotlarning izchil, sifatli va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

o‘zlari a’zo bo‘lgan doimiy komissiyalar tarkibida strategiya ijrosi yuzasidan nazorat tadbirdari rejasida belgilangan vazifalarni o‘z muddatlarida sifatli ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

**8.** Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Ergashev), “Vodil yog‘dusi” gazetasi (S.Dadaxo‘jaev) muntazam ravishda tuman hokimligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida hamda “Vodil yog‘dusi” gazetasida strategiya maqsad va vazifalari mazmun-mohiyatlarini jamoatchilikka yetkazish choralarini ko‘rsinlar.

**9.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashining barcha doimiy komissiyalari raislari (M.Yo‘ldashev, Q.Makarov, O.Dadajonova, A.Xamdamov, I.Abduraxmonov), hamda ijrosini ta’minlashtuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rnbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV  
ILXOMJON  
AKBARALIYEVICH